

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/2025.27.12.P.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI**

**RAVSHANOV XUSAN ABDIQUL O'G'LI**

**INNOVATSION FAOLIYAT JARAYONIDA TALABALARNING**  
**O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISHINING PSIXOLOGIK**  
**XUSUSIYATLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the  
Psychological Sciences**

**Ravshanov Xusan Abdiqul o'g'li**

Innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning o'zini o'zi faollashtirishining  
psixologik xususiyatlari.....3

**Равшанов Хусан Абдикул угли**

Психологические особенности самоактивизации студентов в процессе  
инновационной деятельности .....25

**Ravshanov Xusan Abdiqul ugli**

Psychological characteristics of student self-activation in the process of innovative  
activity .....49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works .....54

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/2025.27.12.P.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI**

**RAVSHANOV XUSAN ABDIQUL O'G'LI**

**INNOVATSION FAOLIYAT JARAYONIDA TALABALARNING**  
**O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISHINING PSIXOLOGIK**  
**XUSUSIYATLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/P1200 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasining ([www.bxu.uz](http://www.bxu.uz)) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Axatov Yo'ldosh Xamzayevich**

Psixologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Olimov Laziz Yarashovich**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Saidov Azamat Ismoilovich**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro xalqaro universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.P.43.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "19" 08 soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro viloyat, Buxoro shahar, G'ijduvon ko'chasi 250-uy. Tel.: (55) 309-99-99; e-mail: [bxu.@bxu.uz](mailto:bxu.@bxu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (054 -raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 200101, Buxoro viloyat, Buxoro shahar, G'ijduvon ko'chasi 250-uy. Tel.: (55) 309-99-99).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "3" 08 kuni tarqatildi.

(2026-yil "19" 08 26. -raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**Sh. R. Baratov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
psixologiya fanlari doktori, professor

  
**Sh. Sh. Ostanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

  
**D. A. Sobirova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori  
(DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot va bilimlar iqtisodiyotiga o'tish jarayonlari jadallashayotgan sharoitda oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni kuchaytirish hamda talabalarning o'zini o'zi faollashtirish mexanizmlarini rivojlantirish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. UNESCO hisobotida 2024-yilda oliy ta'limda tahsil olayotganlar soni 264 million nafarga yetgani va qamrov darajasi o'rtacha 43 foizni tashkil etgani qayd etilgan. OECD tadqiqotlariga ko'ra, talabalarning 78 foizi kreativ fikrlashning bazaviy darajasiga ega bo'lsa-da, murakkab vaziyatlarda original g'oyalar ishlab chiqaradiganlar ulushi nisbatan pastligi aniqlangan. Shu bois innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning o'zini o'zi faollashtirishining psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish hamda ularning ichki resurslarini safarbar etishga xizmat qiluvchi nazariy va metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.

Jahonda raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot hamda bilimlar iqtisodiyotiga o'tish jarayonlari jadallashayotgan sharoitda oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish, xususan, talabalarning o'zini o'zi faollashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Jahon iqtisodiy forumining 2025-yilgi "Future of Jobs Report" hisobotiga ko'ra, 2030-yilgacha mehnat bozorida zarur tayanch ko'nikmalarning 39 foizi o'zgarishi, 170 million yangi ish o'rni yaratilishi hamda 92 million ish o'rni qisqarishi prognoz qilinmoqda. Shu bois innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning o'zini o'zi faollashtirishining psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish hamda ularning ichki resurslarini safarbar etishga xizmat qiluvchi nazariy va metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda<sup>2</sup>.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmonida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazish hamda oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi mavqeini oshirish vazifalari belgilangan. Mazkur me'yoriy-huquqiy asoslar talabalarning innovatsion faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish bilan birga, ularning o'zini o'zi faollashtirishining psixologik xususiyatlarini, xususan, ichki motivatsiya, tashabbuskorlik, refleksiya, maqsadga yo'naltirilganlik va shaxsiy mas'uliyatning o'zaro bog'liqligini ilmiy jihatdan tadqiq etishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Shu bois innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning o'zini o'zi faollashtirishining psixologik

---

<sup>1</sup> [https://www.unesco.org/en/higher-education?utm\\_source](https://www.unesco.org/en/higher-education?utm_source)

<sup>2</sup> [https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2024/04/building-competencies-for-digital-and-green-innovation-in-higher-education\\_50ac2a75/d3869c1f-en.pdf](https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2024/04/building-competencies-for-digital-and-green-innovation-in-higher-education_50ac2a75/d3869c1f-en.pdf)

xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda<sup>3</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son «2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son »O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son «Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida», 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonlarida, 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son «Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», Qarorlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 222-son «Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 12-yanvardagi 24-son «Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlarida hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublika psixolog olimlaridan B.S.Abdullayeva, K.A.Farfiyeva, G.N.Ibragimova, M.A.Jabborova, A.M.Nazarov, Sh.Sh.Rustamov, O'.U.Shukurova, A.P.Xolto'rayev, A.N.Qurbonboyev va boshqalar shaxs faoliyatining psixologik asoslari hamda innovatsion tafakkurning rivojlanishi masalalari tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan K.Abulxanova-Slavskaya, B.Ananyev, A.Brushlinskiy, V.Davidov, P.Galperin, D.Elkonin, E.Klimov, A.Leontyev, V.Petrovskiy, S.Rubinshteyn va boshqalar tomonidan konstruktivizm, tajriba asosida o'rganish, talabalarning mustaqil faoliyatini faollashtirish, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish mexanizmlari ilmiy-amaliy jihatdan o'rganilgan.

Xorij olimlaridan J.Bruner, Ch.Buhler, A.Bandura, E.Dechi, G.Ollport, A.Maslou, R.Mey, D.Maklelland, K.Rojers, R.Rayan, J.Rotter va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda shaxsning kognitiv rivojlanishi, tajriba

---

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-4545884>

asosida o'rganish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va ijodiy tafakkurning shakllanishi masalalari keng yoritilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsion tadqiqot Buxoro xalqaro universiteti Psixologiya va umumiy fanlar kafedrasining «Uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish samaradorligini oshirish, innovatsion tadqiqotlar» mavzusidagi ustuvor ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning o'zini o'zi faollashtirishining psixologik xususiyatlari aniqlash va uni ilmiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

talabalarning innovatsion faoliyat jarayonida o'zini o'zi faollashtirishining hayotiy mazmun bilan bog'liq psixologik xususiyatlarini aniqlash;

talabalarning innovatsion faoliyat jarayonida o'zini o'zi faollashtirishining irodaviy sifatlar bilan bog'liq jihatlarini tahlil qilish;

talabalarning innovatsion faoliyat jarayonida o'zini o'zi faollashtirishining akademik motivatsiya bilan bog'liq psixologik determinantlarini ochib berish;

innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning o'zini o'zi faollashtirishini rivojlantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning o'zini o'zi faollashtirishining psixologik xususiyatlarini o'rganish jarayoni belgilangan bo'lib, tadqiqotga Buxoro xalqaro universitetidan 70 nafar, Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetidan 50 nafar hamda Samarqand davlat universitetidan 40 nafar, jami 160 nafar talabalar respondentlar sifatida jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning o'zini o'zi faollashtirishining psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, intervyu, anketa, faoliyat samaralarini tahlil qilish usullari, shuningdek, F.Kalinaning «Shaxsning o'zini o'zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi, D.A.Leontev tomonidan ishlab chiqilgan "Hayotiy maqsadlar testi", N.E.Stambulova tomonidan ishlab chiqilgan "Irodaviy sifatlarning rivojlanish darajasini baholash" metodikasi hamda T.O.Gordeyeva, O.A.Sechev va E.N.Osinlarning "Akademik motivatsiya shkalasi" metodikasidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, Mann-Uitnining U-mezoni, Kruskal-Uollisning-H-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning o'zini o'zi faollashtirishi hayotiy mazmun ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liq integral psixologik tizim sifatida namoyon bo'lishi, xususan, "avtonomlik"ning "lokus nazorat – Men" bilan, "o'zini o'zi tushunish", "bilish ehtiyojlari" va "qadriyatlar"ning esa "hayotiy maqsadlar"

bilan ijobiy korrelyatsion aloqalari asosida, talabaning ichki faolligini belgilovchi yetakchi determinantlar sifatida mustaqillik, refleksivlik, kognitiv yoʻnalganlik va qadriyaviy-maqсадli uygʻunlik ustuvor xarakter kasb etishi isbotlangan;

talabalardagi oʻzini oʻzi faollashtirishning irodaviy sifatlar bilan aloqador korrelyatsion tuzilmasi tahlili natijasida “qadriyatlar” va “ijodkorlikka intilish”ning “tashabbuskorlik” bilan, “avtonomlik”ning “jasorat” bilan, “oʻzini oʻzi tushunish”ning “matonat” bilan, shuningdek, “aloqa oʻrnatish”ning “jasorat” va “chidamlilik” bilan ijobiy bogʻlanganligi dalillanib, innovatsion faollikning psixologik asosida tashabbuskorlik, dadillik, refleksiv barqarorlik va ijtimoiy-irodaviy chidamlilik ustuvor oʻrin egallashi asoslangan;

akademik motivatsiya va oʻzini oʻzi faollashtirish koʻrsatkichlari oʻrtasidagi bogʻliqliklar tizimi shuni koʻrsatdiki, “bilish ehtiyojlari”ning “kognitiv motivatsiya”, “ijodkorlikka intilish”ning “oʻz-oʻzini shakllantirish”, “avtonomlik”ning “ichki motivatsiya”, “oʻzini oʻzi tushunish”ning “muvaqqafiyat motivatsiyasi” bilan ijobiy hamda “oʻzini oʻzi tushunish”ning “amotivatsiya” bilan salbiy korrelyatsiyaga ega ekanligi asosida bilishga ichki ehtiyoj, ijodiy oʻsishga yoʻnalganlik, mustaqil ichki boshqaruv va refleksiv oʻzlik anglash innovatsion faollikni taʼminlovchi muhim omillar ekanligi aniqlangan;

tajriba natijalarining dinamik tahlili innovatsion taʼlim sharoitida talabalarining oʻzini oʻzi faollashtirishi alohida sifatlar yigʻindisi emas, balki integral psixologik tizim sifatida rivojlanishini koʻrsatib, tajriba guruhida “vaqtni moʻljalga olish”, “qadriyatlar”, “bilish ehtiyojlari”, “ijodkorlikka intilish”, “oʻzini oʻzi tushunish”, “autosimpatiya” va “aloqa oʻrnatish” koʻrsatkichlari boʻyicha kuzatilgan ijobiy oʻzgarishlar asosida refleksivlik, qadriyaviy yoʻnalganlik, kognitiv faollik, kreativ intilish, ijobiy oʻzlik munosabati va kommunikativ ochiqlikning oʻzaro uygʻunlashgan tizimi shakllanishi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

innovatsion faoliyat jarayonida talabalarining oʻzini oʻzi faollashtirishni oʻrganuvchi metodikalar guruhi tizimlashtirilgan;

talabalar innovatsion faoliyat jarayonida talabalarining oʻzini oʻzi faollashtirish darajasi yosh, gender hamda xududiy jihatdan tahlil qilingan;

innovatsion faoliyat jarayonida talabalarining oʻzini oʻzi faollashtirish omillarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik dasturi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, olingan empirik, miqdoriy koʻrsatkichlarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, tekshiruvlarning bir necha aniq va rejali bosqichlarda va turli usullar yordamida amalga oshirilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, tadqiqot maydoni sifatida turli hududlardagi muassasalar tanlangani, barcha oraliq natijalar ilmiy anjumanlar faoliyati doirasida yetakchi olimlar ishtirokida muhokama qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya jarayonida amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki,

undagi ilmiy va amaliy xulosalardan kelgusida innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning o'zini o'zi faollashtirishining psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganishda, ularning ichki motivatsiyasi, refleksiv tafakkuri, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati hamda ijtimoiy-muhitiiy omillar ta'sirida yuzaga keladigan faollik mexanizmlarini aniqlashda foydalanish mumkin. Tadqiqotdan olingan natijalar asosida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarda innovatsion faoliyatga nisbatan passivlik, tashabbus yetishmasligi, ichki to'siqlar va tashqi omillar bilan bog'liq psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiluvchi ilmiy yondashuvlar ishlab chiqiladi. Shuningdek, mazkur tadqiqot natijalari ishning ilmiy-nazariy jihatlarini boyitishga hamda ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan amaliyotchi psixologlar va pedagoglarning kasbiy faoliyatida talabalarning innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan psixologik xizmatni takomillashtirishda keng qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, u talabalarning innovatsion faoliyat jarayonidagi o'zini o'zi faollashtirish holatlarini psixologik jihatdan anglashga, ichki motivatsiya darajasi, shaxsiy mas'uliyat, tashabbuskorlik va kreativ fikrlashning o'quv va ilmiy faoliyat samaradorligiga ta'sirini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqotda qo'llanilgan nazariy tahlillar va empirik natijalar asosida talabalarga psixologik-konsultativ yordam ko'rsatish bo'yicha samarali yo'nalishlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni innovatsion tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan treninglar, psixoprofilaktik mashg'ulotlar hamda amaliy dasturlarda tatbiq etish mumkin. Shuningdek, mazkur materiallar «Kognitiv psixologiya», «Intelлект psixologiyasi», «Pedagogik psixologiya» hamda «Psixologik xizmat» kabi fanlarni o'qitishda nazariy manba sifatida, o'quv qo'llanmalar va darsliklar yaratishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** «Innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning o'zini o'zi faollashtirishining psixologik xususiyatlari»ni o'rganishga doir olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida:

innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning o'zini o'zi faollashtirishi hayotiy mazmun ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liq integral psixologik tizim sifatida namoyon bo'lishi, xususan, "avtonomlik"ning "loкус nazorat – Men" bilan, "o'zini o'zi tushunish", "bilish ehtiyojlari" va "qadriyatlar"ning esa "hayotiy maqsadlar" bilan ijobiy korrelyatsion aloqalari asosida, talabaning ichki faolligini belgilovchi yetakchi determinantlar sifatida mustaqillik, refleksivlik, kognitiv yo'nalganlik va qadriyaviy-maqsadli uyg'unlik ustuvor xarakter kasb etishi isbotlangan ilmiy xulosalar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Maktab ta'limi vazirligi o'quvchilarni kasb- hunarga yo'naltirish psixologik va pedagogik Respublika tashxis markazining 2026-yil 23-apreldagi 01/10-01-154-sonli buyrug'i asosida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Maktab ta'limi vazirligi o'quvchilarni kasb- hunarga yo'naltirish psixologik va pedagogik Respublika tashxis markazining 2026-yil 23-apreldagi 01/10-01-154-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan mustaqil fikrlash,

refleksiv tahlil va maqsadli o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishiga erishildi;

talabalardagi o'zini o'zi faollashtirishning irodaviy sifatlar bilan aloqador korrelyatsion tuzilmasi tahlili natijasida "qadriyatlar" va "ijodkorlikka intilish"ning "tashabbuskorlik" bilan, "avtonomlik"ning "jasorat" bilan, "o'zini o'zi tushunish"ning "matonat" bilan, shuningdek, "aloqa o'rnatish"ning "jasorat" va "chidamlilik" bilan ijobiy bog'langanligi dalillanib, innovatsion faollikning psixologik asosida tashabbuskorlik, dadillik, refleksiv barqarorlik va ijtimoiy-irodaviy chidamlilik ustuvor o'rin egallashi asoslangan ilmiy xulosalar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Maktab ta'limi vazirligi o'quvchilarni kasb- hunarga yo'naltirish psixologik va pedagogik Respublika tashxis markazining 2026-yil 23-apreldagi 01/10-01-154-sonli buyrug'i asosida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Maktab ta'limi vazirligi o'quvchilarni kasb- hunarga yo'naltirish psixologik va pedagogik Respublika tashxis markazining 2026-yil 23-apreldagi 01/10-01-154-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarining tashabbuskorligi, irodaviy barqarorligi, ijtimoiy faolligi hamda innovatsion faoliyatga psixologik tayyorgarlik darajasi oshirildi;

akademik motivatsiya va o'zini o'zi faollashtirish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqliklar tizimi shuni ko'rsatdiki, "bilish ehtiyojlari"ning "kognitiv motivatsiya", "ijodkorlikka intilish"ning "o'z-o'zini shakllantirish", "avtonomlik"ning "ichki motivatsiya", "o'zini o'zi tushunish"ning "muvaffaqiyat motivatsiyasi" bilan ijobiy hamda "o'zini o'zi tushunish"ning "amotivatsiya" bilan salbiy korrelyatsiyaga ega ekanligi asosida bilishga ichki ehtiyoj, ijodiy o'sishga yo'nalganlik, mustaqil ichki boshqaruv va refleksiv o'zlik anglash innovatsion faollikni ta'minlovchi muhim omillar ekanligi aniqlangan ilmiy xulosalar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Maktab ta'limi vazirligi o'quvchilarni kasb- hunarga yo'naltirish psixologik va pedagogik Respublika tashxis markazining 2026-yil 23-apreldagi 01/10-01-154-sonli buyrug'i asosida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Maktab ta'limi vazirligi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish psixologik va pedagogik Respublika tashxis markazining 2026-yil 23-apreldagi 01/10-01-154-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bilishga bo'lgan ichki ehtiyoj, muvaffaqiyatga intilish, o'zini o'zi rivojlantirish motivatsiyasi va innovatsion faollikning psixologik asoslari mustahkamlandi;

tajriba natijalarining dinamik tahlili innovatsion ta'lim sharoitida talabalarining o'zini o'zi faollashtirishi alohida sifatlar yig'indisi emas, balki integral psixologik tizim sifatida rivojlanishini ko'rsatib, tajriba guruhida "vaqtni mo'ljalga olish", "qadriyatlar", "bilish ehtiyojlari", "ijodkorlikka intilish", "o'zini o'zi tushunish", "autosimpatiya" va "aloqa o'rnatish" ko'rsatkichlari bo'yicha kuzatilgan ijobiy o'zgarishlar asosida refleksivlik, qadriyaviy yo'nalganlik, kognitiv faollik, kreativ intilish, ijobiy o'zlik munosabati va kommunikativ ochiqlikning o'zaro uyg'unlashgan tizimi shakllanishi dalillangan ilmiy xulosalar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Maktab ta'limi vazirligi o'quvchilarni

kasb- hunarga yo'naltirish psixologik va pedagogik Respublika tashxis markazining 2026-yil 23-apreldagi 01/10-01-154-sonli buyrug'i asosida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Maktab ta'limi vazirligi o'quvchilarni kasb- hunarga yo'naltirish psixologik va pedagogik Respublika tashxis markazining 2026-yil 23-apreldagi 01/10-01-154-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda refleksivlik, kreativ fikrlash, kommunikativ ochiqlik, ijobiy o'zlik munosabati hamda innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirish kompetensiyalari shakllantirildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, shundan 2 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 145 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoni o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ishning fan va texnologiyalar rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotda joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Talabalarda o'zini o'zi faollashtirish muammosining nazariy-psixologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida o'zini o'zi faollashtirish fenomeni, uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi determinantlar, shart-sharoitlar tahlili muammosining O'zbekistonda, yaqin va uzoq xorij mamlakatlarida o'rganilish holati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbek olimlaridan I.G'.Abdullayeva, N.M.Babayeva, M.G.Davletshin, Z.T.Nishonova, A.I.Saitqosimov, E.G'.G'oziyev va boshqalar innovatsion tashabbuskorlik hamda o'quv faoliyatini faollashtiruvchi motivlar bo'yicha amaliy tahlillarni amalga oshirishgan.

MDH olimlaridan I.Zimnyaya, N.Talizina, M.Dyachenko, L.Mitina, A.Markova, N.M.Lebedeva, A.N.Tatarko, A.A.Alekseyeva, L.A.Gromova, L.A.Ivanova va boshqalar innovatsion faoliyat sharoitida shaxsning psixologik resurslarini faollashtirish, mustaqil qaror qabul qilish va kreativ yondashuvni rivojlantirish bo'yicha ilmiy ishlar olib borilgan.

Xorijlik olimlaridan Ch. Spearman, R.Cattel, B.Zimmerman, P.Pintrich, M.Boekaerts, R.Baumeister va boshqalar innovatsion kompetentlik, o'zini o'zi

faollashtirish hamda mustaqil fikrlash mexanizmlariga ta'sir etuvchi omillari bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishgan.

Dissertatsiyaning «**Innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning o'zini o'zi faollashtirishining empirik tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahliliga asoslangan korrelyatsion bog'lanishlar izohi o'z aksini topgan.

Dastlab, F.Kalining «Shaxsning o'zini o'zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga o'tamiz.

#### 1-jadval.

#### **F.Kalining «Shaxsning o'zini o'zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi orqali kurslar kesimi bo'yicha olingan natijalar tahlili (Mann-Whitney U mezon), (n=160)**

| <b>Omillar</b>            | <b>Kurslar kesimida</b> | <b>N</b> | <b>O'rtacha rang</b> | <b>U</b> | <b>Z</b> | <b>p</b> |
|---------------------------|-------------------------|----------|----------------------|----------|----------|----------|
| Vaqtni mo'ljalga olish    | 2-bosqich               | 90       | 78,6                 | 2758,0   | -1,18    | 0,238    |
|                           | 4-bosqich               | 70       | 83,3                 |          |          |          |
| Qadriyatlar               | 2-bosqich               | 90       | 72,1                 | 2418,5   | -2,36    | 0,018*   |
|                           | 4-bosqich               | 70       | 91,4                 |          |          |          |
| Inson tabiatiga nazar     | 2-bosqich               | 90       | 79,2                 | 2794,0   | -1,05    | 0,293    |
|                           | 4-bosqich               | 70       | 82,6                 |          |          |          |
| Bilish ehtiyojlari        | 2-bosqich               | 90       | 90,4                 | 2326,0   | -2,71    | 0,007**  |
|                           | 4-bosqich               | 70       | 73,5                 |          |          |          |
| Ijodkorlikka intilish     | 2-bosqich               | 90       | 93,2                 | 2489,5   | -2,12    | 0,034*   |
|                           | 4-bosqich               | 70       | 74,9                 |          |          |          |
| Avtonomlik                | 2-bosqich               | 90       | 80,4                 | 2861,0   | -0,82    | 0,412    |
|                           | 4-bosqich               | 70       | 81,0                 |          |          |          |
| Spontanlik                | 2-bosqich               | 90       | 77,9                 | 2701,5   | -1,29    | 0,197    |
|                           | 4-bosqich               | 70       | 84,1                 |          |          |          |
| O'zini o'zi tushunish     | 2-bosqich               | 90       | 71,5                 | 2389,0   | -2,49    | 0,013*   |
|                           | 4-bosqich               | 70       | 92,0                 |          |          |          |
| Autosimpatiya             | 2-bosqich               | 90       | 74,0                 | 2528,0   | -1,98    | 0,047*   |
|                           | 4-bosqich               | 70       | 88,8                 |          |          |          |
| Aloqa o'rnatish           | 2-bosqich               | 90       | 69,8                 | 2294,5   | -2,85    | 0,004**  |
|                           | 4-bosqich               | 70       | 94,3                 |          |          |          |
| Muloqotdagi egiluvchanlik | 2-bosqich               | 90       | 78,1                 | 2726,0   | -1,25    | 0,211    |
|                           | 4-bosqich               | 70       | 83,9                 |          |          |          |

«Qadriyatlar» ko'rsatkichi bo'yicha 2-bosqich va 4-bosqich talabalari kesimida shaxsiy yo'nalganlik hamda ma'naviy ustuvorliklar bir xil psixologik

tuzilma sifatida namoyon bo'lmashligi aniqlanib, statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjudligi tasdiqlandi ( $Z=-2,36$ ;  $p=0,018$ ). 2-bosqich talabalari faoliyatida qadriy orientatsiyalar asosan tashqi talablar, baholash tizimi va ijtimoiy kutilmalar ta'sirida shakllanib, innovatsion faoliyatga nisbatan beqaror psixologik munosabatni yuzaga keltiradi. 4-bosqich talabalari faoliyatida esa qadriyatlar tizimi shaxsiy tajriba va kasbiy o'zini anglash jarayonlari bilan uyg'unlashib, ichki barqarorlikni ta'minlovchi muhim psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Kurslar o'rtasidagi tafovut qadriyatlarning shaxsiy maqsadlar bilan integratsiyalashuv darajasi turlicha ekanini ko'rsatadi. Xususan, 4-bosqich talabalari uchun qadriyatlar innovatsion vazifalarni ongli qabul qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish bilan uzviy bog'liq bo'lsa, 2-bosqich talabalari muhitida ular ko'proq moslashuv jarayoni doirasida shakllanib, hali barqaror psixologik tuzilma darajasiga yetmaydi. Mazkur empirik natijalar qadriyatlar tizimi talaba shaxsida statik emas, balki ta'lim jarayoni davomida bosqichma-bosqich yetuklashib boruvchi dinamik psixologik komponent ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shu bilan birga, kurslar kesimidagi farqlar talabalarning innovatsion faoliyatga nisbatan munosabatlar chuqurligi hamda o'zini o'zi faollashtirish darajasida sezilarli tafovutlarni yuzaga keltirishi aniqlandi.

«Bilish ehtiyojlari» ko'rsatkichi bo'yicha 2-bosqich talabalarda yuqori natijalar aniqlanib, statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjudligi tasdiqlandi ( $Z= -2,71$ ;  $p= 0,007$ ). 2-bosqich talabalari faoliyatida bilishga qiziqish asosan umumiy ta'lim talablarini bajarishga yo'naltirilgan bo'lib, innovatsion vazifalarga chuqur intellektual jalb etilish darajasini to'liq ta'minlamaydi. 4-bosqich talabalari muhitida esa bilish ehtiyojlari kasbiy o'zini anglash va mustaqil izlanishlar bilan uyg'unlashgan holda shakllanib, innovatsion faoliyatga ongli kirishish uchun ichki psixologik zamin yaratadi. Kurslar kesimidagi tafovut bilishga intilish darajasi ta'lim bosqichlari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Xususan, 4-bosqich talabalari bilimni axborot sifatida emas, balki muammoni hal etish vositasi sifatida qabul qilib, uni shaxsiy rivojlanish manbai sifatida talqin etadi, 2-bosqich talabalari faoliyatida esa bilish ehtiyojlari ko'proq tashqi nazorat va baholash mexanizmlariga tayangan holda namoyon bo'ladi hamda hali barqaror intellektual ehtiyoj darajasiga yetmaydi. Mazkur empirik natijalar bilish ehtiyojlari shaxs tuzilmasida statik emas, balki ta'lim jarayoni davomida bosqichma-bosqich rivojlanib boruvchi dinamik psixologik komponent ekanini asoslaydi hamda u talabalarning innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasini belgilovchi muhim mezon sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

«Ijodkorlikka intilish» ko'rsatkichi bo'yicha 2-bosqich talabalarda yuqori natijalar aniqlanib, statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjudligi tasdiqlandi ( $Z= -2,12$ ;  $p= 0,034$ ). 2-bosqich talabalari faoliyatida ijodiy intilishlar yuqori darajada namoyon bo'lib, bu ularning yangicha vazifalarni qabul qilish jarayonida mavjud cheklovlardan chiqishga bo'lgan ichki ehtiyoji kuchliligi hamda qat'iy kasbiy stereotiplarga hali to'liq bog'lanib ulgurmaganligi bilan izohlanadi. Mazkur bosqichda ijodkorlik tajriba qilish, muqobil yechimlarni izlash va psixologik

erkinlik bilan uyg'unlashgan holda rivojlanadi. 4-bosqich talabalari faoliyatida esa ijodkorlikning nisbatan pastroq namoyon bo'lishi innovatsion vazifalarning kasbiy me'yorlar va amaliy talablar bilan cheklanishi, shuningdek, mas'uliyatning ortishi natijasida ijodiy riskka nisbatan ehtiyotkorlikning kuchayishi bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Natijada yuqori bosqichda ijodiy intilishlar ko'proq amaliy samaradorlikka yo'naltiriladi. Mazkur tafovut ijodkorlikning ta'lim bosqichlari davomida psixologik erkinlik va kasbiy yo'naltirilganlik nisbatiga bog'liq holda dinamik o'zgarib borishini ko'rsatadi.

«O'zini o'zi tushunish» ko'rsatkichi bo'yicha esa 4-bosqich talabalarda yuqori natijalar aniqlanib, statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjudligi tasdiqlandi ( $Z = -2,49$ ;  $p = 0,013$ ). 4-bosqich talabalari faoliyatida o'zini anglash jarayonlari yuqori darajada namoyon bo'lib, bu ularning shaxsiy tajribani tizimlashtirish, ichki kechinmalarni tahlil qilish va o'z imkoniyatlarini real baholashga bo'lgan psixologik tayyorgarligi bilan izohlanadi. O'qish jarayonining yakuniy bosqichi hamda kasbiy o'zini belgilash zarurati refleksiv jarayonlarning chuqurlashuviga olib keladi va o'zini o'zi tushunish innovatsion qarorlar qabul qilishda ichki tayanch mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. 2-bosqich talabalari faoliyatida esa mazkur xususiyat nisbatan past darajada bo'lib, o'zini anglash jarayonlarining hali barqaror psixologik tuzilma darajasiga yetmaganligi bilan izohlanadi. Dastlabki bosqichda talabalar ichki holatlarni ko'proq situativ tarzda idrok etib, refleksiv tahlilga yetarli tayyorgarlikka ega bo'lmaydi va bu jarayon ko'proq tashqi baholash hamda ijtimoiy kutilmalar bilan bog'liq holda shakllanadi. Mazkur empirik natijalar o'zini o'zi tushunishning ta'lim jarayoni davomida bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi va innovatsion faoliyatda muhim rol o'ynovchi dinamik psixologik omil ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

«Autosimpatiya» ko'rsatkichi bo'yicha 4-bosqich talabalarda ijobiy natijalar aniqlanib, statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjudligi tasdiqlandi ( $Z = -1,98$ ;  $p = 0,047$ ). 4-bosqich talabalari muhitida o'zini qabul qilish jarayoni ichki barqarorlik bilan uyg'unlashib, shaxsiy imkoniyatlarni tan olish va cheklovlarni real idrok etish orqali mustahkamlanadi. Ta'lim jarayonining yakuniy bosqichida to'plangan tajriba hamda mustaqil qaror qabul qilish zarurati o'ziga nisbatan munosabatni muvozanatli holatga olib keladi va autosimpatiya tashqi baholashlardan nisbatan mustaqil ichki tayanch sifatida namoyon bo'ladi. 2-bosqich talabalari faoliyatida esa o'ziga munosabat ko'proq tashqi baholash va ijtimoiy kutilmalarga tayangan holda shakllanib, hali barqaror psixologik tuzilma darajasiga yetmaydi. Mazkur tafovut autosimpatiya ta'lim jarayonida bosqichma-bosqich mustaqillashib boruvchi dinamik psixologik xususiyat ekanini ko'rsatadi.

«Aloqa o'rnatish» ko'rsatkichi bo'yicha 4-bosqich talabalarda yuqori natijalar aniqlanib, statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjudligi tasdiqlandi ( $Z = -2,85$ ;  $p = 0,004$ ). 4-bosqich talabalari muhitida muloqotga kirishish jarayonlari kengroq ijtimoiy tajriba, kommunikativ ishonch va vaziyatni adekvat baholash qobiliyati bilan uyg'unlashgan holda shakllanadi. Ta'lim jarayonining yakuniy bosqichida jamoaviy faoliyat va kasbiy muloqotning faollashuvi natijasida aloqa o'rnatish

mexanizmlari ongli va murakkab darajada namoyon bo‘lib, shaxsning o‘z fikrini erkin ifodalashi hamda hamkorlikni saqlab qolish qobiliyati bilan tavsiflanadi. 2-bosqich talabalari muhitida esa muloqot jarayoni ko‘proq ehtiyotkorlik, ijtimoiy baholanishdan cho‘chish va kommunikativ noaniqlik bilan kechib, tashabbusdan ko‘ra moslashuv strategiyalariga tayanadi. Mazkur empirik natijalar aloqa o‘rnatishning ijtimoiy tajriba ortishi bilan bosqichma-bosqich murakkablashib, ichki ishonch bilan mustahkamlanib boruvchi psixologik xususiyat ekanini ko‘rsatadi hamda innovatsion faoliyatda hamkorlik, ijtimoiy moslashuv va faol subyektiv pozitsiyani ta‘minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lishini asoslaydi.

Navbatdagi bosqichda F.Kalining «Shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi hamda D.A.Leontev tomonidan ishlab chiqilgan “Hayotiy maqsadlar testi” o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahliliga diqqatimizni qaratamiz.

## 2-jadval.

**F.Kalining «Shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi hamda D.A.Leontev tomonidan ishlab chiqilgan “Hayotiy maqsadlar testi” o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahlili (n=160)**

| <b>Omillar</b>            | <b>Hayotiy maqsadlar</b> | <b>Hayotiy jarayon</b> | <b>Hayotiy natijalar</b> | <b>Lokus nazorat – Men</b> | <b>Lokus nazorat – Hayot</b> |
|---------------------------|--------------------------|------------------------|--------------------------|----------------------------|------------------------------|
| Vaqtini mo‘ljalgan olish  | 0,14                     | 0,19                   | 0,11                     | 0,36*                      | 0,13                         |
| Qadriyatlar               | 0,41*                    | 0,18                   | 0,15                     | 0,19                       | 0,12                         |
| Inson tabiatiga nazar     | 0,17                     | 0,15                   | 0,10                     | 0,18                       | 0,14                         |
| Bilish ehtiyojlari        | 0,44*                    | 0,17                   | 0,16                     | 0,10                       | 0,13                         |
| Ijodkorlikka intilish     | 0,19                     | 0,12                   | 0,41*                    | 0,17                       | 0,10                         |
| Avtonomlik                | 0,16                     | 0,13                   | 0,18                     | 0,49*                      | 0,16                         |
| Spontanlik                | 0,14                     | 0,18                   | 0,12                     | 0,16                       | 0,10                         |
| O‘zini o‘zi tushunish     | 0,48*                    | 0,15                   | 0,10                     | 0,14                       | 0,17                         |
| Autosimpatiya             | 0,13                     | 0,40*                  | 0,16                     | 0,11                       | 0,15                         |
| Aloqa o‘rnatish           | 0,15                     | 0,17                   | 0,39*                    | 0,10                       | 0,18                         |
| Muloqotdagi egiluvchanlik | 0,19                     | 0,12                   | 0,10                     | 0,18                       | 0,31*                        |

«Vaqtini mo‘ljalgan olish» va «lokus nazorat – Men» o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik aniqlanib, statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi tasdiqlandi ( $r= 0,36$ ;  $p<0,05$ ). Innovatsion faoliyat kontekstida vaqtini ongli tashkil etish shaxsning o‘z

harakatlarini ichki javobgarlik asosida boshqarishga intilishi bilan uyg'unlashadi. Vaqtni rejalashtirishga yo'naltirilgan xulq-atvor shakllari talabaning o'zini faol subyekt sifatida idrok etishini kuchaytirib, hayotiy qarorlarni tashqi omillarga emas, ichki pozitsiyaga tayangan holda qabul qilishiga zamin yaratadi. Faoliyatni oldindan tashkil etish va vaqt resursiga mas'uliyatli munosabat ichki nazoratning barqaror shakllanishini ta'minlab, shaxsiy tanlovlarning ongli amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Innovatsion muhitda vaqtni tartibli idrok etish noaniqlik sharoitida ichki barqarorlikni saqlash, tashqi omillarga psixologik qaramlikni kamaytirish hamda javobgarlikni shaxsiy darajada qabul qilishni kuchaytiradi. Mazkur uyg'unlik shaxsiy o'sish jarayonlarini qo'llab-quvvatlab, mustaqil qaror qabul qilish, uzoq muddatli maqsadlarni anglash va tavakkalchilikni ongli boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

«Qadriyatlar» omili hamda «hayotiy maqsadlar» o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlanib, statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi tasdiqlandi ( $r= 0,41$ ;  $p<0,05$ ). Innovatsion faoliyat sharoitida shaxsiy qadriyatlarning barqaror tizim sifatida shakllanishi hayotiy yo'nalishlarni ongli ravishda belgilash bilan uzviy bog'liqdir. Talaba shaxsida ma'naviy ustuvorliklar mustahkam bo'lgan sari hayotiy maqsadlar tasodifiy omillardan xoli holda ichki e'tiqod va shaxsiy tanlovlar asosida shakllanadi. Natijada qadriyatlar va hayotiy maqsadlar o'rtasidagi bog'liqlik talabaning ichki faolligini uzoq muddatli rivojlanish istiqbollariga yo'naltiruvchi muhim psixologik omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

«Bilish ehtiyojlari» omili bilan «hayotiy maqsadlar» omili o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlanib, statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi tasdiqlandi ( $r= 0,44$ ;  $p<0,05$ ). Innovatsion faoliyat sharoitida bilimga intilishning ichki ehtiyoj sifatida shakllanishi shaxsning hayotiy yo'nalishlarini ongli va mazmunli belgilashga xizmat qiladi. Talaba shaxsida bilishga bo'lgan qiziqish kuchaygan sari hayotiy maqsadlar tasodifiy emas, balki anglangan ichki intilishlar asosida shakllanib, ularning izchilligi va uzoq muddatli yo'naltirilganligi mustahkamlanadi. Natijada bilish ehtiyojlari va hayotiy maqsadlar o'rtasidagi bog'liqlik talabaning o'zini o'zi faollashtirish jarayonida ichki resurslarni safarbar etuvchi muhim psixologik omil sifatida ilmiy jihatdan asoslanadi.

«Ijodkorlikka intilish» va «hayotiy natijalar» o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlanib, statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi tasdiqlandi ( $r= 0,41$ ;  $p<0,05$ ). Innovatsion faoliyat sharoitida ijodiy izlanishga moyillik shaxs tomonidan erishilgan natijalarni mazmunli va ongli tarzda idrok etish bilan uzviy bog'liqdir. Talaba shaxsida yangilik yaratishga ichki tayyorgarlik kuchaygan sari hayotiy yutuqlar tasodifiy muvaffaqiyat sifatida emas, balki shaxsiy sa'y-harakatlarning mantiqiy natijasi sifatida anglanadi. Innovatsion muhitda bunday uyg'unlik tashqi baholarga qaramlikni kamaytirib, erishilgan yutuqlarni ichki qadriyat darajasida talqin etishga imkon beradi. Natijada ijodkorlik va hayotiy natijalar o'rtasidagi bog'liqlik talabaning o'zini o'zi faollashtirish jarayonini chuqurlashtiruvchi va ichki barqarorlikni ta'minlovchi muhim psixologik omil sifatida ilmiy jihatdan asoslanadi.

«Avtonomlik» omili hamda «lokus nazorat – Men» oʻrtasida ijobiy bogʻliqlik aniqlanib, statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi tasdiqlandi ( $r= 0,49$ ;  $p<0,05$ ). Talabaning mustaqil qaror qabul qilishga tayyorligi hayotiy vaziyatlarda masʼuliyatni oʻz zimmasiga olishga ichki moyillik bilan uzviy bogʻliqdir. Avtonom pozitsiyaning shakllanishi shaxsning oʻz harakatlarini tashqi omillarga emas, balki ichki tanlovlar asosida boshqarishiga zamin yaratadi va ichki nazorat mexanizmlarining barqaror rivojlanishini taʼminlaydi. Natijada talaba oʻz muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini shaxsiy saʼy-harakatlari bilan bogʻlab, innovatsion faoliyatda mustaqil va masʼuliyatli subyekt sifatida namoyon boʻladi.

«Oʻzini oʻzi tushunish» va «hayotiy maqsadlar» oʻrtasida ijobiy bogʻliqlik aniqlanib ( $r=0,48$ ;  $p<0,05$ ), refleksiv jarayonlarning rivojlanganligi hayotiy yoʻnalishlarni ongli belgilash bilan chambarchas bogʻliq ekani koʻrsatildi. Shaxs oʻz ichki ehtiyoj va intilishlarini anglagan sari hayotiy maqsadlar tasodifiy emas, balki mazmunli va izchil tanlovlar asosida shakllanadi. Mazkur uygʻunlik innovatsion faoliyatda maqsadlarga sodiqlikni taʼminlovchi muhim psixologik tayanch sifatida namoyon boʻladi.

«Autosimpatiya» va «hayotiy jarayon» oʻrtasidagi ijobiy bogʻliqlik ( $r= 0,40$ ;  $p<0,05$ ) shaxsning oʻziga nisbatan ijobiy munosabati hayotiy jarayonlarni mazmunli va qoniqarli idrok etish bilan bogʻliqligini koʻrsatdi. Oʻzini qabul qilish darajasi yuqori boʻlgan sharoitda hayotiy faoliyat tashqi majburiyat sifatida emas, balki shaxsiy tajriba va rivojlanish maydoni sifatida anglanadi. Bu esa psixologik barqarorlikni mustahkamlovchi omil sifatida namoyon boʻladi.

«Aloqa oʻrnatish» va «hayotiy natijalar» oʻrtasida ijobiy korrelyatsiya aniqlanib ( $r= 0,39$ ;  $p<0,05$ ), ijtimoiy aloqalarga ochiqlik hayotiy yutuqlarni subyektiv anglash jarayoni bilan bogʻliqligi asoslandi. Kommunikativ faollik kuchaygan sari hayotiy natijalar individual saʼy-harakat bilan bir qatorda ijtimoiy hamkorlik mahsuli sifatida idrok etiladi. Mazkur uygʻunlik innovatsion faoliyatda erishilgan yutuqlarga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni shakllantiradi.

«Muloqotdagi egiluvchanlik» va «lokus nazorat – Hayot» oʻrtasida ijobiy bogʻliqlik aniqlanib ( $r= 0,31$ ;  $p<0,05$ ), kommunikativ moslashuvchanlik hayotiy jarayonlarni boshqarish mumkinligi haqidagi ichki tasavvurlar bilan uzviy bogʻliqligi koʻrsatildi. Muloqot jarayonida vaziyatga moslashish qobiliyati kuchaygan sari shaxs hayotiy voqealarni tasodifiy emas, balki oʻz taʼsiri doirasida boshqariladigan tizim sifatida qabul qiladi. Natijada bu holat innovatsion faoliyatda ichki nazoratni kuchaytiruvchi va oʻzini oʻzi faollashtirish mexanizmlarini chuqurlashtiruvchi muhim psixologik omil sifatida ilmiy jihatdan asoslandi.

Shuningdek, F.Kalinaning «Shaxsning oʻzini oʻzi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi hamda N.E.Stambulova tomonidan ishlab chiqilgan «Irodaviy sifatlarning rivojlanish darajasini baholash» metodikasi oʻrtasidagi korrelyatsion bogʻlanishlar tahliliga eʼtiborimizni qaratamiz.

«Qadriyatlar» omili hamda «tashabbuskorlik» omili oʻrtasida ijobiy bogʻliqlik aniqlanib, statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi tasdiqlandi ( $r= 0,31$ ;  $p<0,05$ ).

Qadriyatlar tizimining shakllanganligi talabani tashabbus ko'rsatishga ichki tayyorgarligini kuchaytirib, faoliyatni shaxsiy mas'uliyat asosida kengaytirishga zamin yaratadi. Ichki e'tiqodlarga tayangan tashabbus tashqi rag'batlardan nisbatan mustaqil holda namoyon bo'lib, innovatsion vaziyatlarda faol va mas'uliyatli pozitsiyani shakllantiradi.

### 3-jadval.

**F.Kalining «Shaxsning o'zini o'zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi hamda N.E.Stambulova tomonidan ishlab chiqilgan «Irodaviy sifatlarining rivojlanish darajasini baholash» metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=160)**

| <b>Omilar</b>             | <b>Jasorat</b> | <b>Matonat</b> | <b>Tashabbuskorlik</b> | <b>Chidamlilik</b> |
|---------------------------|----------------|----------------|------------------------|--------------------|
| Vaqtini mo'ljallash olish | 0,18           | 0,09           | 0,17                   | 0,19               |
| Qadriyatlar               | 0,19           | 0,14           | 0,31*                  | 0,17               |
| Inson tabiatiga nazar     | 0,16           | 0,17           | 0,18                   | 0,15               |
| Bilish ehtiyojlari        | 0,12           | 0,16           | 0,14                   | 0,18               |
| Ijodkorlikka intilish     | 0,15           | 0,13           | 0,37*                  | 0,14               |
| Avtonomlik                | 0,31*          | 0,15           | 0,19                   | 0,13               |
| Spontanlik                | 0,10           | 0,18           | 0,11                   | 0,17               |
| O'zini o'zi tushunish     | 0,11           | 0,32*          | 0,19                   | 0,10               |
| Autosimpatiya             | 0,14           | 0,17           | 0,12                   | 0,16               |
| Aloqa o'rnatish           | 0,33*          | 0,19           | 0,15                   | 0,31*              |
| Muloqotdagi egiluvchanlik | 0,10           | 0,14           | 0,18                   | 0,13               |

«Ijodkorlikka intilish» va «tashabbuskorlik» o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlanib ( $r=0,37$ ;  $p<0,05$ ), ijodiy fikrlashning rivojlanganligi faoliyatni boshlash va rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyojni kuchaytirishi asoslandi. Ijodiy yo'nalganlik mavjud bo'lgan sharoitda tashabbus tashqi undovlarsiz yuzaga kelib, innovatsion faoliyatda yangicha yondashuvlarni ilgari surishga xizmat qiladi.

«Avtonomlik» va «jasorat» o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlanib ( $r=0,31$ ;  $p<0,05$ ), mustaqil qaror qabul qilishga moyillik murakkab va noaniq vaziyatlarda dadil pozitsiyani egallash bilan bog'liqligi ko'rsatildi. Avtonomlik rivojlangan sharoitda jasorat impulsiv emas, balki ongli tanlov mahsuli sifatida namoyon bo'lib, innovatsion faoliyatda tavakkalchilikni boshqarishga xizmat qiladi.

«O'zini o'zi tushunish» va «matonat» o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlanib ( $r=0,32$ ;  $p<0,05$ ), refleksiv jarayonlarning rivojlanganligi faoliyatni qiyinchiliklarga qaramay davom ettirishga ichki tayanch bo'lishi asoslandi. O'zini anglash darajasi ortgan sari sabr-toqat va bardoshlilik ongli va barqaror psixologik sifat sifatida shakllanadi.

«Aloqa o'rnatish» va «jasorat» o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlanib ( $r=0,33$ ;  $p<0,05$ ), kommunikativ faollik murakkab vaziyatlarda ochiq va qat'iyatli pozitsiyani egallashga psixologik zamin yaratishi ko'rsatildi. Ijtimoiy aloqalarga

ochiqlik jasoratni tashqi rag‘batlarsiz qo‘llab-quvvatlab, innovatsion faoliyatda faol ishtirokni ta’minlaydi.

«Aloqa o‘rnatish» va «chidamlilik» o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik aniqlanib ( $r=0,31$ ;  $p<0,05$ ), ijtimoiy munosabatlarga kirishish qobiliyati uzoq davom etuvchi zo‘riqlashlarga bardoshlilik bilan bog‘liqligi asoslandi. Muloqot orqali olinadigan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chidamlilikni kuchaytirib, faoliyatni uzluksiz davom ettirishga xizmat qiladi.

Jumladan, F.Kalining «Shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi hamda “Akademik motivatsiya shkalasi” metodikasi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahliliga e’tiborimizni qaratamiz.

#### 4-jadval.

#### F.Kalining «Shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi hamda “Akademik motivatsiya shkalasi” metodikasi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahlili (n=160)

| Omilar                    | Kognitiv motivatsiya | Muvaffaqiyat motivatsiyasi | O‘z-o‘zini shakllantirish | O‘z-o‘zini hurmat qilish motivatsiyasi | Introjektsiyalash (ichki) motivatsiya | Eksternal (tashqi) motivatsiya | Amotivatsiya |
|---------------------------|----------------------|----------------------------|---------------------------|----------------------------------------|---------------------------------------|--------------------------------|--------------|
| Vaqtini mo‘ljalga olish   | 0,18                 | 0,14                       | 0,29*                     | 0,12                                   | 0,15                                  | 0,11                           | -0,19        |
| Qadriyatlar               | 0,34*                | 0,11                       | 0,16                      | 0,19                                   | 0,13                                  | 0,14                           | -0,22        |
| Inson tabiatiga nazar     | 0,11                 | 0,18                       | 0,10                      | 0,17                                   | 0,19                                  | 0,12                           | -0,15        |
| Bilish ehtiyojlari        | 0,42*                | 0,15                       | 0,19                      | 0,11                                   | 0,17                                  | 0,10                           | -0,17        |
| Ijodkorlikka intilish     | 0,18                 | 0,14                       | 0,41*                     | 0,19                                   | 0,16                                  | 0,13                           | -0,14        |
| Avtonomlik                | 0,13                 | 0,10                       | 0,15                      | 0,18                                   | 0,32*                                 | 0,09                           | -0,16        |
| Spontanlik                | 0,19                 | 0,17                       | 0,11                      | 0,16                                   | 0,10                                  | 0,14                           | -0,12        |
| O‘zini o‘zi tushunish     | 0,10                 | 0,33*                      | 0,18                      | 0,15                                   | 0,14                                  | 0,08                           | -0,29*       |
| Autosimpatiya             | 0,11                 | 0,17                       | 0,10                      | 0,39*                                  | 0,19                                  | 0,11                           | -0,11        |
| Aloqa o‘rnatish           | 0,16                 | 0,13                       | 0,18                      | 0,17                                   | 0,17                                  | 0,16                           | -0,18        |
| Muloqotdagi egiluvchanlik | 0,14                 | 0,12                       | 0,16                      | 0,11                                   | 0,15                                  | 0,18                           | -0,14        |

«Vaqtini mo‘ljalga olish» hamda «o‘z-o‘zini shakllantirish» o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik aniqlanib, statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi tasdiqlandi ( $r= 0,29$ ;  $p<0,05$ ). Vaqtini ongli rejalashtirish shaxsiy rivojlanishni izchil va tizimli tashkil etishga zamin yaratib, o‘z ustida ishlashni epizodik emas, balki barqaror psixologik jarayonga aylantiradi.

«Qadriyatlar» va «kognitiv motivatsiya» o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik ( $r= 0,34$ ;  $p<0,05$ ) shaxsiy ma’naviy ustuvorliklarning shakllanishi bilimga intilishni ichki ehtiyoj sifatida mustahkamlashini ko‘rsatdi. Bunday uyg‘unlik o‘rganish

jarayonining izchilligini ta'minlab, innovatsion faoliyatda intellektual faollikni kuchaytiradi.

«Bilish ehtiyojlari» va «kognitiv motivatsiya» o'rtasida barqaror aloqadorlik aniqlanib ( $r = 0,42$ ;  $p < 0,05$ ), bilimga bo'lgan ichki ehtiyoj o'rganish jarayonini mustaqil va uzluksiz faoliyatga aylantirishi asoslandi. Mazkur bog'liqlik innovatsion muhitda murakkab bilimlarni chuqur o'zlashtirishga psixologik tayyorgarlikni kuchaytiradi.

«Ijodkorlikka intilish» va «o'z-o'zini shakllantirish» o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik ( $r = 0,41$ ;  $p < 0,05$ ) ijodiy faollik shaxsiy rivojlanishni ongli va dinamik jarayon sifatida tashkil etishini ko'rsatdi. Ijodkorlik mavjud bo'lgan sharoitda o'zini rivojlantirish ichki ehtiyoj va tashabbus bilan qo'llab-quvvatlanadi.


«Avtonomlik» va «introjeksiyalashgan motivatsiya» o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlanib ( $r = 0,32$ ;  $p < 0,05$ ), mustaqil qaror qabul qilishga moyillik faoliyatni ichki talablar asosida davom ettirish bilan bog'liqligi asoslandi. Bu esa tashqi nazoratdan nisbatan mustaqil barqaror motivatsiyani shakllantiradi.

«O'zini o'zi tushunish» va «muvaffaqiyat motivatsiyasi» o'rtasida ijobiy bog'liqlik ( $r = 0,33$ ;  $p < 0,05$ ) refleksiv anglash jarayonlari yutuqqa erishishni ongli maqsad sifatida shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, «o'zini o'zi tushunish» va «amotivatsiya» o'rtasidagi teskari bog'liqlik ( $r = -0,29$ ;  $p < 0,05$ ) ichki anglash darajasi oshgan sari faoliyatga befarqlikning kamayishini tasdiqlaydi.


«Autosimpatiya» va «o'z-o'zini hurmat qilish motivatsiyasi» o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik ( $r = 0,39$ ;  $p < 0,05$ ) shaxsning o'ziga nisbatan ijobiy munosabati ichki ishonch va o'z qadrini saqlashga yo'naltirilgan motivlarni kuchaytirishini ko'rsatdi. Mazkur uyg'unlik innovatsion faoliyatda psixologik barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning **«Talabalarda o'zini o'zi faollashtirishni rivojlantirishning amaliy asoslari»** deb nomlangan uchinchi bobi muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, olingan natijalarning tahlili, o'zini o'zi faollashtirishni rivojlantirishga yo'naltirilgan psixologik treninglar dasturi, uning samaradorligini ta'minlaydigan mexanizmlar hamda tajribadan oldingi va keyingi statistik natijalar tahlili keltirilgan. Tajriba-sinov ishlarida talabalarning o'zini o'zi faollashtirish hamda hayotiy yo'nalganlik ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhleri shakllantirildi. Tadqiqotda jami 160 nafar talaba ishtirok etdi. Ulardan 50 nafari tajriba guruhi, 110 nafari esa nazorat guruhi sifatida belgilandi. Guruhlarni shakllantirish jarayonida talabalarning yoshi, jinsi, ta'lim bosqichi, ta'lim yo'nalishi hamda dastlabki diagnostika natijalari hisobga olindi.

## TALABALAR O'QUV FAOLIYATI JARAYONIDA O'ZINI-O'ZI FAOLLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRUVCHI PSIXOKORREKSION DASTUR MODEL



### Psixokorreksion dastur mazmuni



### Individual/guruh

Navbatdagi bosqichda F.Kalining «Shaxsning o'zini o'zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi bo'yicha tajriba va nazorat guruhlar natijalariga diqqatimizni qaratamiz.

### 5-jadval.

#### F.Kalining «Shaxsning o'zini o'zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» metodikasi bo'yicha tajriba va nazorat guruhlar natijalari (n=160)

| №  | Omilar                    | Guruh   | N   | Dastlabki o'rtacha rang | Keyingi o'rtacha rang | U      | Z     | p       |
|----|---------------------------|---------|-----|-------------------------|-----------------------|--------|-------|---------|
| 1  | Vaqtini mo'ljallash olish | Tajriba | 50  | 71,8                    | 89,6                  | 2124,0 | -2,21 | 0,027*  |
|    |                           | Nazorat | 110 | 79,3                    | 78,4                  | 2981,0 | -0,41 | 0,681   |
| 2  | Qadriyatlar               | Tajriba | 50  | 73,1                    | 92,4                  | 2048,5 | -2,48 | 0,013*  |
|    |                           | Nazorat | 110 | 78,6                    | 79,9                  | 3016,5 | -0,36 | 0,718   |
| 3  | Inson tabiatiga nazar     | Tajriba | 50  | 77,6                    | 80,2                  | 2679,0 | -0,64 | 0,522   |
|    |                           | Nazorat | 110 | 79,1                    | 79,7                  | 3094,0 | -0,12 | 0,905   |
| 4  | Bilish ehtiyojlari        | Tajriba | 50  | 69,9                    | 94,1                  | 1986,0 | -2,87 | 0,004** |
|    |                           | Nazorat | 110 | 81,2                    | 81,8                  | 2878,0 | -0,58 | 0,561   |
| 5  | Ijodkorlikka intilish     | Tajriba | 50  | 72,4                    | 90,7                  | 2183,5 | -2,06 | 0,039*  |
|    |                           | Nazorat | 110 | 78,9                    | 79,1                  | 2956,0 | -0,44 | 0,662   |
| 6  | Avtonomlik                | Tajriba | 50  | 76,8                    | 82,3                  | 2584,0 | -0,91 | 0,364   |
|    |                           | Nazorat | 110 | 79,0                    | 79,8                  | 3079,5 | -0,15 | 0,881   |
| 7  | Spontanlik                | Tajriba | 50  | 74,9                    | 85,6                  | 2416,5 | -1,44 | 0,150   |
|    |                           | Nazorat | 110 | 79,8                    | 80,6                  | 2938,0 | -0,49 | 0,624   |
| 8  | O'zini o'zi tushunish     | Tajriba | 50  | 70,5                    | 93,2                  | 2012,0 | -2,66 | 0,008** |
|    |                           | Nazorat | 110 | 80,7                    | 80,9                  | 2896,5 | -0,55 | 0,583   |
| 9  | Autosimpatiya             | Tajriba | 50  | 73,7                    | 90,9                  | 2246,0 | -1,98 | 0,047*  |
|    |                           | Nazorat | 110 | 78,5                    | 78,9                  | 3004,0 | -0,33 | 0,741   |
| 10 | Aloqa o'rnatish           | Tajriba | 50  | 68,4                    | 96,0                  | 1894,5 | -3,11 | 0,002** |
|    |                           | Nazorat | 110 | 82,1                    | 86,3                  | 2816,0 | -0,71 | 0,479   |
| 11 | Muloqotdagi egiluvchanlik | Tajriba | 50  | 75,6                    | 83,4                  | 2498,0 | -1,07 | 0,285   |
|    |                           | Nazorat | 110 | 79,2                    | 81,7                  | 3068,0 | -0,18 | 0,858   |

Innovatsion ta'lim sharoitida olib borilgan tajriba jarayoni natijalari talabalarining o'zini o'zi faollashtirish jarayoni alohida psixologik komponentlar majmui sifatida emas, balki o'zaro uzviy bog'langan murakkab tizim tarzida shakllanishini ko'rsatdi, chunki «vaqtini mo'ljallash olish» omilida aniqlangan o'zgarishlar faoliyatni ongli rejalashtirish va ichki nazorat mexanizmlarining faollashuvi bilan uyg'unlashdi ( $Z=-2,21$ ;  $p=0,027$ ). Shu bilan birga, «qadriyatlar» omilida kuzatilgan siljishlar shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega yo'nalishlarning ichki e'tiqodlar asosida qayta shakllanganini ifodalab, faoliyatga ma'naviy mazmun berish jarayonining kuchayganini namoyon etdi ( $Z=-2,48$ ;  $p=0,013$ ). Bundan tashqari, «Bilish ehtiyojlari» omilida qayd etilgan sezilarli farq bilimga intilish tashqi talablar bilan emas, balki ichki psixologik zarurat sifatida faollashganini ko'rsatib, intellektual faollikning barqarorlashuviga xizmat qildi ( $Z=-2,87$ ;  $p=0,004$ ). «Ijodkorlikka intilish» omilida aniqlangan o'zgarishlar yangicha fikrlashga ochiqlik va nostandart yondashuvlar shaxsiy faollik bilan uzviy bog'langan holda rivojlanganini ifodaladi ( $Z=-2,06$ ;  $p=0,039$ ). Shu bilan bir qatorda, «O'zini o'zi tushunish» omilida kuzatilgan farq refleksiv anglash

jarayonlari chuqurlashib, shaxsiy qarorlar ongli tus olganini va ichki muvozanat mustahkamlanganini ko'rsatdi ( $Z=-2,66$ ;  $p=0,008$ ). Bundan tashqari, «Autosimpatiya» omilida aniqlangan siljishlar o'ziga nisbatan ijobiy munosabat va ichki qabul qilish darajasi kuchayganini ifodalab, shaxsiy barqarorlikning emotsional asoslarini mustahkamladi ( $Z=-1,98$ ;  $p=0,047$ ). «Aloqa o'rnatish» omilida qayd etilgan yuqori darajadagi farq ijtimoiy faollik, kommunikativ tashabbus va muloqotga kirishishdagi psixologik erkinlik tajriba sharoitida sezilarli darajada rivojlanganini ko'rsatib, innovatsion faoliyat jarayonida shaxsning ijtimoiy resurslari faollashganini tasdiqladi ( $Z=-3,11$ ;  $p=0,002$ ).

## XULOSA

1. Innovatsion faoliyat jarayonida talabalarining o'zini o'zi faollashtirish tizimi «vaqtni mo'ljalga olish», «qadriyatlar», «bilish ehtiyojlari», «ijodkorlikka intilish», «o'zini o'zi tushunish», «autosimpatiya» hamda «aloqa o'rnatish» kabi omillar kesimida tahlil qilinganda, mazkur psixologik xususiyatlar bir xil intensivlikda shakllanmasdan, shaxsning ichki resurslari, ta'lim jarayoni tajribasi va individual psixologik tayyorgarligi bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lishi, ayrim omillarning barqaror ichki tayanch sifatida faoliyatni yo'naltirishi, ayrimlarining esa vaziyatga bog'liq ravishda kuchayib yoki susayib borishi orqali innovatsion jarayonda shaxsning faollik darajasini turlicha belgilashi aniqlandi.

2. Kurslar kesimida olib borilgan tahlil natijalari «qadriyatlar», «bilish ehtiyojlari», «ijodkorlikka intilish», «o'zini o'zi tushunish», «autosimpatiya» hamda «aloqa o'rnatish» omillari ta'lim bosqichlari ortishi bilan mazmunan chuqurlashib borishi, ya'ni boshlang'ich bosqichlarda ushbu omillar ko'proq tashqi talablar va moslashuv mexanizmlari bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'lsa, yuqori bosqichlarda ichki barqarorlik, shaxsiy mas'uliyat va kasbiy o'zlik bilan integratsiyalashgan holda faoliyatni boshqaruvchi asosiy psixologik tayanchga aylanishini yaqqol ifodalab bergani kuzatildi.

3. Ta'lim yo'nalishlari kesimida olib borilgan tahlil «qadriyatlar», «inson tabiatiga nazar», «avtonomlik», «autosimpatiya» hamda «muloqotdagi egiluvchanlik» omillarining kasbiy tafakkur va ta'lim mazmuni bilan uzviy uyg'unlashgan holda shakllanishi, psixologiya yo'nalishida ichki qabul va insoniy munosabatlar markaziy o'rin egallashi, matematika yo'nalishida mustaqillik va ratsional boshqaruv yetakchilik qilishi, kimyo yo'nalishida esa moslashuvchanlik va jarayonlarga tizimli yondashuv ustuvor bo'lishi shaxsning innovatsion faoliyatdagi faolligini turlicha yo'naltirishi asoslandi.

4. Olingan natijalar innovatsion faoliyat jarayonida talabalarining «vaqtni mo'ljalga olish», «qadriyatlar», «bilish ehtiyojlari», «ijodkorlikka intilish», «avtonomlik», «o'zini o'zi tushunish», «autosimpatiya» hamda «aloqa o'rnatish» kabi omillar ta'lim bosqichi, jins, hudud va yo'nalish omillariga mos ravishda turlicha psixologik konfiguratsiyada shakllanishi, bu esa innovatsion faoliyatda shaxsning ichki resurslarini safarbar etish mexanizmlari ko'p qatlamli va dinamik xarakterga ega ekani isbotlandi.

5. Innovatsion faoliyat jarayonida «vaqtni mo'ljalga olish», «qadriyatlar», «bilish ehtiyojlari», «ijodkorlikka intilish» hamda «avtonomlik» kabi omillarning

shaxsning ichki faolligi va hayotiy yo‘nalishlari bilan uzviy uyg‘unlashuvi talabalarda faoliyatni ongli rejalashtirish, maqsadga yo‘naltirilganlik va mustaqil qarorlar asosida olib borish jarayoni bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi.

6. Innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning o‘zini o‘zi faollashtirish tizimi ichki anglash, ma‘naviy yo‘nalganlik, irodaviy barqarorlik va mazmunli motivatsiya omillarining o‘zaro integratsiyalashgan holda shakllanishiga tayangan murakkab psixologik konstruktsiya ekani isbotlandi.

**Dissertatsion tadqiqotimiz doirasida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.**

1. Innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning ichki motivatsiyasini shakllantirish uchun ularning shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olish maqsadga muvofiq.

2. Talabalarda o‘zini o‘zi faollashtirishni rivojlantirish uchun mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

3. Innovatsion ta‘lim jarayonida refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirish orqali talabalarning o‘z-o‘zini baholash qobiliyatini rivojlantirish kerak.

4. Talabalarning ijodiy fikrlashini qo‘llab-quvvatlash maqsadida muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish lozim.

5. O‘zini o‘zi faollashtirish jarayonida talabalarning emotsional holatini barqarorlashtirish uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish zarur.

6. Talabalarda o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash orqali o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish tavsiya etiladi.

7. O‘zini o‘zi faollashtirish jarayonini samarali tashkil etish uchun talabalarning shaxsiy tajribasini innovatsion faoliyat bilan uyg‘unlashtirish lozim.

8. Talabalarning innovatsion faoliyatdagi faolligini oshirish maqsadida psixologik trening va rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarni muntazam tashkil etish zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № PhD.03/2025.27.12.P.43.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ МЕЖДУНАРОДНОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**РАВШАНОВ ХУСАН АБДИКУЛ УГЛИ**

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ  
САМОАКТИВИЗАЦИИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ  
ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**19.00.06 – Возрастная и педагогическая психология. Психология развития**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ПСИХОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Бухара – 2026**

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по психологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под № B2025.1.PhD/P1200.

Диссертация выполнена в Бухарском международном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета ([www.bxu.uz](http://www.bxu.uz)), а также на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

|                               |                                                                                                                                                                 |
|-------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Научный руководитель</b>   | <b>Ахатов Йулдош Хамзаевич</b><br>доктор философии по психологическим наукам (PhD),<br>доцент                                                                   |
| <b>Официальные оппоненты:</b> | <b>Олимов Лазиз Ярашович</b><br>доктор психологических наук (DSc), профессор<br><b>Сандов Азамат Исмоилович</b><br>доктор психологических наук (DSc), профессор |
| <b>Ведущая организация:</b>   | <b>Ташкентский университет востоковедения</b>                                                                                                                   |

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.P.43.01 при Бухарском международном университете «19» 08 2026 года в 16<sup>00</sup> часов (Адрес: 200101, Бухарская область, город Бухара, улица Гиждуванская, дом 250. Тел.: (55) 309-99-99, e-mail: [bxu@bxu.uz](mailto:bxu@bxu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского международного университета. (зарегистрирована за номером 054.) (Адрес: 200101, Бухарская область, город Бухара, махалля Ситораи Мохи-хоса, улица Гиждуванская, дом 250. Тел.: (55) 309-99-99).

Автореферат диссертации разослан "3" 08 2026 года.

(Протокол реестра рассылки № 26 от "19" 08 2026 года).

  
**Ш.Р. Баратов**  
Председатель Научного Совета по  
присуждению учёных степеней,  
д.п.н., профессор  
**Ш.Ш. Останов**  
Учлен секретарь Научного Совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.п.н. (DSc), доцент  
**С.А. Собирова**  
Председатель Научного семинара при  
Научном Совете по присуждению  
учёных степеней, д.п.н. (DSc), профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В условиях усиления процессов цифровой трансформации, зелёной экономики и перехода к экономике знаний в мире укрепление инновационной деятельности в системе высшего образования, а также развитие механизмов самоактивизации студентов становится одним из приоритетных направлений развития современного общества. В докладе ЮНЕСКО отмечено, что в 2024 году число обучающихся в системе высшего образования достигло 264 миллионов человек, а уровень охвата составил в среднем 43 процента. Согласно исследованиям ОЭСР, хотя 78 процентов студентов обладают базовым уровнем креативного мышления, доля тех, кто способен генерировать оригинальные идеи в сложных ситуациях, оказалась относительно низкой. В связи с этим глубокое изучение психологических особенностей самоактивизации студентов в процессе инновационной деятельности, а также разработка теоретических и методологических подходов, способствующих мобилизации их внутренних ресурсов, приобретает актуальную научно-практическую значимость<sup>1</sup>.

В условиях усиления процессов цифровой трансформации, зелёной экономики и перехода к экономике знаний в мире развитие инновационной деятельности в системе высшего образования, в частности, совершенствование механизмов самоактивизации студентов становится одним из приоритетных направлений развития современного общества. Согласно докладу Всемирного экономического форума «Future of Jobs Report» 2025 года, до 2030 года прогнозируется изменение 39 процентов необходимых ключевых компетенций на рынке труда, создание 170 миллионов новых рабочих мест и сокращение 92 миллионов рабочих мест. В связи с этим глубокое изучение психологических особенностей самоактивизации студентов в процессе инновационной деятельности, а также разработка теоретических и методологических подходов, способствующих мобилизации их внутренних ресурсов, остаётся одной из актуальных проблем<sup>2</sup>.

В последние годы в нашей республике особое внимание уделяется модернизации системы высшего образования, развитию научной и инновационной деятельности, а также реализации интеллектуального потенциала молодёжи. В частности, в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5847 от 8 октября 2019 года обозначены задачи по повышению уровня охвата высшим образованием свыше 50 процентов, поэтапному переводу учебного процесса на кредитно-модульную систему и повышению позиций высших образовательных учреждений в международных рейтингах. Данная нормативно-правовая база, наряду с расширением участия студентов в инновационной деятельности,

---

<sup>1</sup> [https://www.unesco.org/en/higher-education?utm\\_source](https://www.unesco.org/en/higher-education?utm_source)

<sup>2</sup> [https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2024/04/building-competencies-for-digital-and-green-innovation-in-higher-education\\_50ac2a75/d3869c1f-en.pdf](https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2024/04/building-competencies-for-digital-and-green-innovation-in-higher-education_50ac2a75/d3869c1f-en.pdf)

актуализирует задачу научного исследования психологических особенностей их самоактивизации, в частности, взаимосвязи между внутренней мотивацией, инициативностью, рефлексией, целеустремленностью и личной ответственностью. В связи с этим создаются широкие возможности для проведения научных исследований, направленных на раскрытие психологических особенностей самоактивизации студентов в процессе инновационной деятельности<sup>3</sup>.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации широкомасштабных стратегических мер, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», № УП-165 от 6 июля 2022 года «Об утверждении Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 годы», № УП-6108 от 6 ноября 2020 года «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, а также науки в новый период развития Узбекистана», № УП-6198 от 1 апреля 2021 года «О совершенствовании системы государственного управления в сфере развития научной и инновационной деятельности», № УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», в Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-5047 от 1 апреля 2021 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию государственной политики в сфере науки и государственного управления в области инновационного развития», в Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 222 от 19 апреля 2021 года «О мерах по поддержке талантливой молодёжи, занимающейся научной и инновационной деятельностью», № 24 от 12 января 2018 года «О мерах по созданию эффективных механизмов внедрения в производство научно-инновационных разработок и технологий», а также в других нормативно-правовых актах, регулирующих данную сферу деятельности.

**Соответствие диссертационного исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан.** Настоящее исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** В исследованиях таких отечественных учёных-психологов, как Б. С. Абдуллаева, К. А. Фарфиева, Г. Н. Ибрагимова, М. А. Джаббарова, А. М. Назаров, Ш. Ш. Рустамов, У. У. Шукурова, А. П. Холтураев, А. Н. Курбонбоев и других, изучены психологические основы деятельности личности и вопросы развития инновационного мышления.

---

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-4545884>

Учёными стран Содружества Независимых Государств, в числе которых К. Абульханова-Славская, Б. Ананьев, А. Брушлинский, В. Давыдов, П. Гальперин, Д. Эльконин, Е. Климов, А. Леонтьев, В. Петровский, С. Рубинштейн и другие, с научно-практической точки зрения исследованы механизмы конструктивизма, обучения на основе опыта, активизации самостоятельной деятельности студентов, а также развития их творческого и критического мышления.

В трудах зарубежных учёных, таких как Дж. Брунер, Ш. Бюлер, А. Бандура, Э. Деси, Г. Олпорт, А. Маслоу, Р. Мэй, Д. Макклелланд, К. Роджерс, Р. Райан, Дж. Роттер и др., широко освещены вопросы когнитивного развития личности, обучения на основе опыта, принятия решений в проблемных ситуациях и формирования творческого мышления.

**Связь темы диссертации с планами научно-исследовательских работ высшего учебного заведения, в котором была выполнена диссертация.** Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетных научно-исследовательских работ кафедры Психологии Бухарского международного университета на тему «Повышение эффективности обучения в системе непрерывного образования, инновационные исследования».

**Целью исследования** является выявление психологических особенностей самоактивизации студентов в процессе инновационной деятельности и разработка практических рекомендаций по её научному совершенствованию.

**Задачи исследования:**

выявление психологических особенностей самоактивизации студентов в процессе инновационной деятельности, связанных со смысловыми ориентациями;

анализ специфики самоактивизации студентов в процессе инновационной деятельности во взаимосвязи с их волевыми качествами;

раскрытие психологических детерминант самоактивизации студентов в процессе инновационной деятельности, обусловленных академической мотивацией;

разработка практических рекомендаций, направленных на развитие самоактивизации студентов в процессе инновационной деятельности.

**Объектом исследования** является процесс изучения психологических особенностей самоактивизации студентов в ходе инновационной деятельности. Всего в качестве респондентов к исследованию было привлечено 160 студентов: 70 человек – из Бухарского международного университета, 50 человек – из Узбекского национального педагогического университета имени Низами и 40 человек – из Самаркандского государственного университета.

